

# Rasmiy munosabat

Telegram ijtimoiy tarmog'ida Surxondaryo viloyati davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi xodimining tuman kengashi deputatlarini haqorat qilgan audioxabari e'lon qilindi. Mazkur holat bo'yicha tegishli mutasaddi boshqarmalar tomonidan o'rganish o'tkazilgan.

O'rganish davomida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Angor tumani bo'limi tegishli xati va fuqaroning murojaatiga asosan Surxondaryo viloyati davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi xodimi I.S. tegishli buyruq bilan Angor tumaniga o'rganish ishlarini o'tkazish uchun yuborilgan.

O'rganish yakunlari bilan murojaat muallifi bilan suhbatlashgan xodim haqiqatdan ham Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi deputatlari sha'niga nisbatan noo'rin gaplar aytgan.

Xodimning hatti-harakatlariga nisbatan baho berish va tegishli chora ko'rish bo'yicha O'zbekiston Respyblikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Axloq komissiyasiga o'rganish hujjatlari yuborilgan.